“JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN” JURNALI
VOLUME 04, ISSUE 07, 2026. JULY
ResearchBib Impact Factor: 9.654/2024 ISSN 2992-8869

BOLALAR VA AYOLLARNI BARCHA KO‘RINISHDAGI TAZYIQ VA ZO‘RAVONLIK HOLATLARIDAN HIMOYA QILISH TIZIMINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH

Ahmadjonova Maftunahon O‘ktam qizi
Toshkent shahar Olmazor tumani IIB FMB TQX NFTG katta tezkor vakili

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bolalarni va ayollarni har qanday ko‘rinishdagi tazyiq hamda zo‘ravonlikdan, xususan, raqamli makonda sodir etiladigan “onlayn-gruming” va “stalking” (ta’qib qilish) kabi kiberzo‘ravonlik shakllaridan himoya qilishning jinoyat-huquqiy va xalqaro-huquqiy jihatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda BMTning Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasi, Lansarote hamda Istanbul konvensiyalari standartlari asosida O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga voyaga yetmagan shaxsdan shahvoniy foydalanish maqsadida aloqa o‘rnatishni (121¹-modda) va JKning 73-moddasini takomillashtirishni nazarda tutuvchi qonunchilik takliflari asoslantirilgan va yuridik-texnik jihatdan baholangan.*

Kalit so‘zlar: *bolalar huquqlari, kiberzo‘ravonlik, onlayn-gruming, stalking, ta’qib qilish, Lansarote konvensiyasi, Istanbul konvensiyasi, jinoiylashtirish, voyaga yetmaganlar daxlsizligi, qonunchilik texnikasi.*

Аннотация. *В данной статье анализируются уголовно-правовые и международно-правовые аспекты защиты детей и женщин от всех форм давления и насилия, в частности от таких проявлений кибернасилия, как «онлайн-груминг» и «сталкинг» (преследование) в цифровой среде. На основе стандартов Конвенции ООН о правах ребенка, Лансаротской и Стамбульской конвенций в исследовании обоснованы и юридико-технически оценены законодательные предложения по дополнению Уголовного кодекса Республики Узбекистан нормой, предусматривающей ответственность за установление контакта с несовершеннолетним в целях сексуальной эксплуатации (статья 121¹), а также по совершенствованию статьи 73 УК.*

Ключевые слова: *права детей, кибернасилие, онлайн-груминг, сталкинг, преследование, Лансаротская конвенция, Стамбульская конвенция, криминализация, неприкосновенность несовершеннолетних, законодательная техника.*

Abstract. *This article analyzes the criminal law and international legal aspects of protecting children and women from all forms of harassment and violence, specifically cyber-violence such as "online grooming" and "stalking" in the digital space. Based on the standards of the UN Convention on the Rights of the Child, the Lanzarote Convention, and the Istanbul Convention, the study provides legal-technical evaluations and justifications for legislative proposals aimed at amending the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan by introducing provisions on establishing contact with minors for sexual exploitation purposes (Article 121¹) and improving Article 73 of the Criminal Code.*

Keywords: *children's rights, cyber-violence, online grooming, stalking, harassment, Lanzarote Convention, Istanbul Convention, criminalization, protection of minors, legislative technique.*

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi va insonlar hayotiga chuqur kirib borishi, bir tomondan, qulayliklar yaratgan bo‘lsa, boshqa tomondan, kibermakonda shaxsga, xususan, ayollar va voyaga yetmaganlarga qarshi sodir etiladigan jinoyatlarning yangi shakllari paydo bo‘lishiga olib keldi. An’anaviy jinoyat qonunchiligi ko‘p hollarda kibermakonda sodir etiladigan "onlayn-gruming" (virtual muhitda bolaning ishonchiga kirib, undan jinsiy foydalanishga tayyorgarlik ko‘rish) yoki "stalking" (shaxsni muntazam va irodasiga zid ravishda ta’qib qilish) kabi qilmishlarga nisbatan huquqiy baho berishda muayyan bo‘shliqlarga duch kelmoqda. Shu munosabat bilan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026 yil 3 martdagi PF–33-sonli Farmoni hamda Senat qarorlari asosida ishlab chiqilgan qonunchilik tashabbuslari raqamli muhitda inson huquqlarini himoya qilishning muhim bosqichi hisoblanadi. Bolalarga nisbatan jinsiy zo‘ravonlik va ekspluatatsiyaning oldini olishda zamonaviy huquq tizimi rang-barang preventiv yondashuvga tayanadi. Ya’ni, jinoyat sodir etilib bo‘linganidan keyin jazolash emas, balki jinoyatning oldini olish, zarar yetkazilishidan oldinroq uning oldini olish asosiy vazifaga aylanadi. Yevropa Kengashining 2007 yildagi Lansarote konvensiyasi 23-moddasida davlatlar zimmasiga AKT orqali voyaga yetmagan bolaga shahvoniy xususiyatga ega jinoyat sodir etish maqsadida aloqa o‘rnatishni va uchrashuvlar taklif qilishni jinoiylashtirish majburiyati yuklangan. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2026 yil 6 fevraldagi SQ-245-V-sonli qarori bilan tasdiqlangan 2030

yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini 2026 yilda amalga oshirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturining 5-bandi va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026 yil 3 martdagi PF–33-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan Ayollar va bolalar huquqlarining himoyasini kuchaytirish hamda ularga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlik holatlarining oldini olish bo‘yicha “yo‘l xaritasi”ning 19-bandida kiberzo‘ravonlik, shu jumladan ta’qib qilish, voyaga yetmagan shaxslardan jinsiy foydalanish, onlayn gruming uchun javobgarlikni belgilash masalasida takliflar ishlab chiqish vazifasi yuklangan.

Jahon amaliyoti shuni ko‘rsatmoqdaki, so‘nggi yigirma yil davomida raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi munosabati bilan aksariyat davlatlar o‘z jinoyat qonunchiligini Internet tarmog‘i hamda boshqa raqamli aloqa vositalari orqali sodir etiladigan jinoyatlarning yangi shakllaridan bolalar va boshqa shaxslarni yanada samarali himoya qilish maqsadida tubdan qayta ko‘rib chiqqan. Ushbu sohadagi eng muhim xalqaro hujjatlardan biri 1987 yil 20 noyabrda qabul qilingan Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya hisoblanadi. Ushbu Konvensiyaning 34-moddasiga ko‘ra ishtirokchi-davlatlar bolani jinsiy ekspluatatsiya va jinsiy buzishning barcha shakllaridan himoya qilish majburiyatini oladilar. Bundan tashqari, 2007 yil 25 oktyabrda Bolalarni shahvoniy ekspluatatsiya qilish va shahvoniy zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risidagi Yevropa Kengashining Konvensiyasi (Lansarote konvensiyasi) qabul qilingan. Mazkur Konvensiyaning 23-moddasiga muvofiq davlatlar milliy qonunchiligida belgilangan yoshga yetmagan bolaga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali unga nisbatan shahvoniy xususiyatga ega jinoyatni sodir etish maqsadida uchrashuv taklif qilish va bunday taklif uchrashuv bilan birga sodir etilgan bo‘lsa, ushbu qilmish uchun jinoiy javobgarlikni belgilashi shart.

Shuningdek, Ayollarga nisbatan zo‘ravonlik va oiladagi zo‘ravonlikning oldini olish hamda ularga qarshi kurashish to‘g‘risidagi Yevropa Kengashi Konvensiyasi (Istanbul konvensiyasi) ham alohida ahamiyatga ega. Ushbu Konvensiyaning 34-moddasi davlatlarga boshqa shaxsga nisbatan qasddan, takroran sodir etiladigan, tahdidli xususiyatga ega bo‘lgan hamda jabrlanuvchida o‘z xavfsizligi uchun asosli qo‘rquv uyg‘otadigan ta’qib (stalking) harakatlarini jinoiylashtirish uchun zarur qonunchilik choralarini ko‘rish majburiyatini yuklaydi.

Mazkur xalqaro hujjatlar shaxsni jinoyat-huquqiy himoya qilishning zamonaviy yondashuvlarini shakllantirdi. Ushbu yondashuvlar jinoyat sodir

etilganidan keyin jazo qo‘llashga emas, balki jinoyatlarni erta bosqichda oldini olish tamoyiliga asoslanadi. Hozirgi kunda voyaga yetmaganlarga nisbatan gruming uchun mustaqil jinoiy javobgarlik Ozarbayjon, Armaniston, Moldova, Gruziya, Polsha, Chexiya, Buyuk Britaniya, Kanada, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Irlandiya, Ispaniya, Italiya, Portugaliya, Germaniya, Fransiya, Niderlandiya, Belgiya, Avstriya, Shveytsariya, Norvegiya, Shvetsiya, Finlyandiya, Daniya, Slovakiya, Xorvatiya, Litva, Latviya, Estoniya, AQSH hamda boshqa ko‘plab davlatlar qonunchiligida nazarda tutilgan.

Xuddi shuningdek, stalking uchun mustaqil jinoiy javobgarlik Germaniya, Buyuk Britaniya, Ispaniya, Avstriya, Moldova, Armaniston, Portugaliya, Fransiya, Italiya, Niderlandiya, Irlandiya, Avstraliya, Daniya, Norvegiya, Polsha, Chexiya, Slovakiya, Vengriya, Xorvatiya, Sloveniya, Litva, Latviya, Estoniya, Janubiy Koreya, Kanada va boshqa qator davlatlarning jinoyat qonunchiligida belgilangan.

Shu munosabat bilan, Jinoyat kodeksini yangi moddalar bilan to‘ldirish taklif etilmoqda. Birinchidan, O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksini 73-modda to‘rtinchi qismining "g" bandi "o‘n sakkiz yoshga to‘lmagan shaxsni jinsiy aloqada bo‘lish yoki jinsiy ehtiyojni g‘ayritabiiy usulda qondirish bilan bog‘liq holda jinsiy aloqa qilishga majbur etganlik" degan so‘zlardan keyin "voyaga yetmagan shaxsdan shahvoniy foydalanish maqsadida u bilan aloqa o‘rnatganlik yoki davom ettirganlik" degan so‘zlar bilan to‘ldirish taklif etilgan. Fikrimizcha "g" bandidagi voyaga yetmagan bilan o‘n sakkiz yoshga to‘lmagan shaxs iborasining bir bandda ishlatilishi qonunchilik texnikasi jihatidan to‘g‘ri emas, shu sababli normaning qamrovi to‘liq bo‘shliqlarsiz bo‘lishi uchun ushbu tushunchani alohida ajratib ko‘rsatish maqsadga muvofiq. Ikkinchidan, loyihada Jinoyat kodeksini "Voyaga yetmagan shaxsdan shahvoniy foydalanish maqsadida u bilan aloqa o‘rnatish yoki uni davom ettirish" mazmunidagi 121¹-moddasi bilan to‘ldirish taklif etilgan bo‘lib, birinchi qismida Voyaga yetmagan shaxs bilan bevosita, uchinchi shaxslar orqali yoki axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, telekommunikatsiya tarmoqlari yoki Internet jahon axborot tarmog‘idan foydalangan holda uni shahvoniy xususiyatga ega harakatlarni sodir etishga og‘dirish, undan shahvoniy xususiyatga ega materiallarni olish yoki unga nisbatan jinsiy daxlsizlikka qarshi jinoyatni keyinchalik sodir etish uchun sharoit yaratish maqsadida qasddan aloqa o‘rnatish yoki uni davom ettirish, shunday qilmishlar uchun ma’muriy jazo qo‘llanilganidan keyin sodir etganlik, uchun jinoiy javobgarlik belgilanishi nazarda tutilgan,

fikrimizcha Jinoyat kodeksiga 121¹-moddaning kiritilishi milliy jinoyat qonunchiligimizni BMTning Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasi va voyaga yetmaganlarni shahvoniy foydalanishdan himoya qilishga oid xalqaro standartlarga to‘liq moslashtiradi. Bu norma nafaqat huquqni muhofaza qiluvchi organlar uchun samarali huquqiy instrument, balki jamiyat uchun bolalar xavfsizligini ta’minlovchi mustahkam qalqon bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi: Rasmiy nashr. – Toshkent: "O‘zbekiston" nashriyoti, 2023.

2. O‘zbekiston Respublikasining "Odam savdosiga qarshi kurashish to‘g‘risida" O‘zbekiston Respublikasi qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida"gi O‘RQ-633-son qonuni. https://lex.uz.

3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2003 yil 12 dekabrdagi "Odam savdosiga va uchinchi shaxslar tomonidan tanafurushlikdan foydalanilishiga qarshi kurash to‘g‘risidagi konvensiyaga va yakunlovchi bayonnomaga qo‘shilish haqida" 576-II-son qarori // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2004 y., 1-2-son. https://lex.uz.

4. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995 yil 31 avgustdagi "1966 yil 16 dekabrdagi Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktga qo‘shilish haqida" 127-I-son qarori // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1995 y., 9-son. https://lex.uz.

5. Xotin-qizlar huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to‘g‘risidagi 1979 yil 18 dekabr Nyu-Yorkda qabul qilingan konvensiya.

6. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining "Xotin-qizlar huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to‘g‘risida 1979 yil 18 dekabr Nyu-Yorkda qabul qilingan Konvensiyaga qo‘shilish haqida"gi qarori (06.05.1995 y. № 87-I).

7. Is‘hoqova L., Hamroyeva K. Odam savdosiga qarshi kurash sohasidagi milliy va xalqaro huquq normalari. – T.: «Yurist-media markazi» nashriyoti, 2010.

8. Xaydarzoda Z. P. Правовые и организационные основы деятельности органов внутренних дел Республики Таджикистан по противодействию торговле людьми: Автореф. дис. канд. юрид. наук. – М., 2019. – 29 с.

9. ООН: 72 процента жертв торговли людьми – женщины и девочки. https://uz.sputniknews.ru/society-/20190730/12122757/OON-72-protsenta-zhertv-torgovli-lyudmi-zhenschiny-i-devochki.html. 30.07.2019

Research Science and Innovation House